



**SPORT TA'LIMIDA GENERATIV SUN'IY INTELEKTDAN XAVFSIZ
VA TANQIDIY FOYDALANISH KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Nematova Rushana Nemat qizi

*Navoiy olimpiya va paralimpiya sport
turlariga tayyorlash markaz
rushanamagistr@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur tezisda sport ta'limi jarayonida o'quvchilarning generativ sun'iy intellekt vositalaridan xavfsiz, maqsadli va tanqidiy foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Generativ sun'iy intellektdan foydalanishda axborotning ishonchliligini tekshirish, noto'g'ri generatsiyalarni aniqlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, akademik halollikka rioya etish hamda sun'iy intellekt tavsiyalarini sport-pedagogik vaziyatlarga moslashtirishga asoslangan metodik yondashuv taklif etilgan. Kompetensiyani rivojlantirishning "topshiriqni aniqlash – prompt yaratish – natijani tekshirish – kasbiy baholash – xavfsizlik nazorati – refleksiya" bosqichlari asoslangan.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt, sport ta'limi, sun'iy intellekt kompetensiyasi, axborot xavfsizligi.

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim oluvchilarga katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, matn va boshqa raqamli kontent yaratish, murakkab masalalar bo'yicha tavsiyalar olish hamda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Biroq generativ sun'iy intellekt tizimidan olingan har qanday natijani tayyor va mutlaq ishonchli bilim sifatida qabul qilish mumkin emas. Shu sababli ta'lim oluvchida generativ sun'iy intellektdan foydalanish texnik ko'nikmasi bilan bir qatorda uning natijalarini tanqidiy baholash va texnologiyadan xavfsiz foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish zarur [1].

Mazkur masala sport ta'limida alohida ahamiyatga ega. Sport yo'nalishidagi o'quvchi generativ sun'iy intellektdan mashg'ulot rejalarini shakllantirish, sport texnikasiga oid ma'lumotlarni umumlashtirish, musobaqaga tayyorgarlik bo'yicha tavsiyalar olish, nazariy topshiriqlarni bajarish va individual jismoniy tayyorgarlik jarayonini rejalashtirishda foydalanishi mumkin. Bunday vaziyatda sun'iy intellekt tomonidan tavsiya qilingan axborotni tanqidiy tekshirmasdan qo'llash noto'g'ri pedagogik yoki mashg'ulot qarorlariga olib kelishi mumkin [2]. Shundan kelib chiqib, sport



ta'limida generativ sun'iy intellektdan xavfsiz va tanqidiy foydalanish kompetensiyasi o'quvchining generativ SI vositalaridan pedagogik va kasbiy vazifalarni hal etishda maqsadli foydalanishi, generatsiya qilingan natijalarning ishonchliligini tekshirishi, ularni sport faoliyatining real sharoitlariga moslashtirishi hamda axborot xavfsizligi, mualliflik huquqi va akademik halollik talablariga rioya qilishi imkonini beruvchi integrativ sifat sifatida qaraladi.

Ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi olti bosqichli metodik algoritmi taklif etiladi:

1-bosqich – topshiriqni aniqlash. O'quvchi generativ sun'iy intellekt yordamida hal qilinadigan sport-pedagogik vazifaning maqsadini belgilaydi. Bunda sun'iy intellektdan foydalanish haqiqatan zarur yoki zarur emasligi ham baholanadi.

2-bosqich – prompt yaratish. O'quvchi vazifaning maqsadi, konteksti, talab qilinayotgan natija shakli va cheklovlarini hisobga olgan holda aniq prompt tuzadi. Masalan, umumiy “menga mashg'ulot rejasini tuz” so'rovi o'rniga sport turi, tayyorgarlik maqsadi, mashg'ulot davomiyligi va boshqa zarur shartlar ko'rsatilgan topshiriq shakllantiriladi.

3-bosqich – natijani tekshirish. Generativ sun'iy intellekt taqdim etgan axborot kamida bir nechta ishonchli manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Faktik xatolar, o'zaro zid ma'lumotlar, asoslanmagan tavsiyalar va manbasi aniqlanmagan fikrlar ajratiladi.

4-bosqich – kasbiy baholash. Olingan natijaning sport ta'limidagi konkret vaziyatga muvofiqligi aniqlanadi. Generativ tizim tomonidan tavsiya etilgan mashg'ulot mazmuni, yuklama yoki metodik tavsiyalar o'quvchining mavjud nazariy va kasbiy bilimlari asosida tahlil qilinadi.

5-bosqich – xavfsizlik nazorati. O'quvchi generativ SI tizimiga shaxsiy yoki himoyalaniishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni kiritmaslik, mualliflik huquqini buzmaslik va sun'iy intellekt yordamida tayyorlangan materialdan foydalanishda akademik halollik talablariga rioya etishni nazorat qiladi.

6-bosqich – refleksiya. O'quvchi generativ sun'iy intellektdan foydalanish jarayonini tahlil qilib, “AI menga qanday yordam berdi?”, “qaysi ma'lumotlarni mustaqil tekshirdim?”, “qanday xatolar aniqlandi?”, “yakuniy qarorning qaysi qismi mening mustaqil xulosam?” kabi savollarga javob beradi.

Taklif etilgan metodikaning amaliy mexanizmini [3] “AI javobini ekspertiza qilish” topshirig'i orqali tashkil etish mumkin. Masalan, o'quvchiga generativ sun'iy intellekt yordamida muayyan sport turi bo'yicha bir haftalik mashg'ulot rejasini shakllantirish vazifasi beriladi. O'quvchi dastlab mustaqil prompt ishlab chiqadi va generativ javobni oladi. Keyingi bosqichda javobdagi



asosiy tavsiyalarni ajratadi, ularni o'quv adabiyotlari va ishonchli ilmiy manbalar bilan solishtiradi hamda "ishonchli", "qo'shimcha tekshirish talab etiladi" va "qabul qilish mumkin emas" kategoriyalari bo'yicha tasniflaydi.

Bunday topshiriqda o'qituvchi tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki moderator va ekspert vazifasini bajaradi. O'quvchining vazifasi esa AI yaratgan javobni ko'chirib olish emas, balki uni dalillar asosida tekshirish, tahrirlash va yakuniy qarorni mustaqil shakllantirishdan iborat bo'ladi. Natijada generativ sun'iy intellekt o'quvchining fikrlash faoliyatini almashtiruvchi vositaga emas, balki tanqidiy fikrlashni rivojlantirish obyektiga aylantiriladi [2].

Metodikani baholashda to'rtta asosiy mezonidan foydalanish maqsadga muvofiq: axborotni verifikatsiya qilish; tanqidiy tahlil; kasbiy moslashtirish; xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish. Har bir mezonni 0–3 ballik shkala asosida baholaganda maksimal natija 12 ballni tashkil qiladi:

$$K = (\sum X_i / 12) \times 100\%,$$

bu yerda X_i – tegishli mezon bo'yicha o'quvchi olgan ball; 12 – maksimal ball; K – xavfsiz va tanqidiy foydalanish kompetensiyasining integral ko'rsatkichi [4].

Masalan, o'quvchi axborotni verifikatsiya qilish bo'yicha 2 ball, tanqidiy tahlil bo'yicha 3 ball, kasbiy moslashtirish bo'yicha 2 ball va xavfsiz foydalanish bo'yicha 3 ball olgan bo'lsa, umumiy natija:

$$K = (2 + 3 + 2 + 3) / 12 \times 100 = 83,3\%$$

ni tashkil etadi. Ushbu hisob o'quvchining kompetensiyasi umumiy ko'rsatkich bilan birga alohida mezonlar kesimida ham tahlil qilinishini ta'minlaydi.

Xulosa

Sport ta'limida generativ sun'iy intellektidan foydalanish samaradorligi o'quvchining mazkur texnologiyadan foydalanish tezligi yoki generatsiya qilingan kontent hajmi bilan emas, balki olingan axborotni tekshirish, tanqidiy tahlil qilish, kasbiy vaziyatga moslashtirish va xavfsizlik talablariga rioya etish qobiliyati bilan belgilanishi lozim. Taklif etilgan "topshiriqni aniqlash – prompt yaratish – natijani tekshirish – kasbiy baholash – xavfsizlik nazorati – refleksiya" algoritmi generativ sun'iy intellektni sport ta'limiga nazoratsiz integratsiya qilish o'rniga undan pedagogik jihatdan asoslangan foydalanishni tashkil etishga yo'naltirilgan. Metodikaning amaliyotga joriy etilishi o'quvchilarda generativ sun'iy intellekt natijalariga tanqidiy munosabat, axborotni mustaqil tekshirish, kasbiy qarorlarni asoslash va raqamli muhitda mas'uliyatli faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. UNESCO. (2024). *AI Competency Framework for Students*. Paris: UNESCO.
2. Miao, F., & Holmes, W. (2023). *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO.
3. Miao, F., Shiohira, K., & Lao, N. (2024). *AI Competency Framework for Students*. UNESCO.
4. Carolus, A., Koch, M., Straka, S., Latoschik, M. E., & Wienrich, C. (2023). *MAILS – Meta AI Literacy Scale: Development and Testing of an AI Literacy Questionnaire Based on Well-Founded Competency Models and Psychological Change- and Meta-Competencies*.